BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QULMUROTOV SOHIBJON JUMANIYOZOVICH

HUDUDLARDA ASALARICHILIKNI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 332.1:631.14:638.1(575.152)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical sciences

Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich
Hududlarda asalarichilikni klasterli yondashuv asosida tashkil etish va barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari (Qashqadaryo viloyati misolida).....3

Кулмуратов Сохибжон Жуманиязович
Направления организации и устойчивого развития пчеловодства в регионах на основе кластерного подхода (на примере Кашкадарьинской области) 27

Kulmuratov Sokhibjon Jumaniyazovich
Directions for Organizing and Sustainable Development of Beekeeping in the Regions Based on a Cluster Approach (On the Example of Kashkadarya Region)53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....57

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

QULMUROTOV SOHIBJON JUMANIYOZOVICH

HUDUDLARDA ASALARICHILIKNI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2026.2.PhD/Iqt7061 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samiyeva Gulnoza Toxirovna** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Nizamov Aslitdin Badreddinovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Rashidov Mels Karimovich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.08.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “12” Noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-26-92, (998 65) 221-27-07, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/1069 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 27 Oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “27” Oktyabr dagi 1926 raqamli reestr bayonnomasi).

O.X. Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh.Yavmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

B.N.Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Asalarichilik sohasi global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholining sog‘lom ovqatlanishini kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi o‘n yilliklar dinamikasi tarmoq ko‘lamining barqaror kengayayotganini ko‘rsatadi: masalan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), 2023 xalqaro statistik hisobotlarda 2022-yilda asalari oilalari zaxirasi 1990-yilga nisbatan qariyb bir barobarga oshgani qayd etiladi[1]. Jahon tabiiy asal bozori qiymati esa yaqin yillarda barqaror o‘sish trendini namoyon qilmoqda.

Hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish borasidagi ilmiy izlanishlar tarkibida asalarichilik tarmog‘ida innovatsion texnologiyalar hisobiga samaradorlikni oshirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Klaster yondashuvi bu jarayonda ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, marketing va changlatish xizmatlarini yagona qiymat zanjiriga birlashtirib, resurslardan oqilona foydalanish va bozor talabiga tezkor moslashishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar (uyalar holatini real vaqt rejimida kuzatish, migratsiya marshrutlarini rejalashtirish, nektar oqimini prognozlash, logistika va sotuv modullari) hamda zamonaviy texnologiyalar (sensorlar, IoT, seleksiya va sog‘lomlashtirish protokollari) asosida boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarur. Mazkur yondashuvning uslubiy asoslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: klaster ishtirokchilari o‘rtasida institutsional hamkorlik va shaffof shartnomalar, resurs sarfi va natija ko‘rsatkichlarini o‘lchashga qaratilgan indikatorlar tizimi, atrof-muhitga ta’sirni baholash orqali ekologik-iqtisodiy muvozanatni saqlash, joylashtirish va servis ishlarini ratsional tashkil etish. Natijada, hududiy asalarichilik klasterlari nafaqat asal va uning derivatlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat yaratadi, balki qishloq xo‘jaligi ekinlarida hosildorlikni oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligiga, aholi salomatligiga va barqaror rivojlanish maqsadlariga ham bevosita hissa qo‘shadi.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash jarayonida asalarichilikni samarali rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda. “… yana bir ustuvor yo‘nalish – asalarichilikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan O‘zbekiston asalarichilar uyushmasiga 20 mingdan ortiq tadbirkor a’zo bo‘lib kirdi va yiliga 25 ming tonnadan ziyod asal yetishtirilmoqda”[2]. Asalarichilikni samarali rivojlantirish borasida soha mahsulotlariga bo‘lgan talabni sifatli va to‘laroq qondirish, asal ishlab chiqarish samaradorigini innovatsion va tejamkor texnologiyalarga ko‘ra oshirish va soha boshqaruvini samarali tashkil qilish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi

[1] Mordor Intelligence ma’lumotlari. — www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/natural-honey-market
[2] https://yuz.uz/uz/news/

PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 16-oktyabrdagi PQ-3327-son “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi 239-son “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi global tadqiqotlarda asalarichilik samaradorligini oshirish masalasi hududlarda tarmoqni klasterlar asosida tashkil etish hamda IoT, sensor kuzatuv, raqamli platformalar va seleksiya-sog‘lomlashtirish kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali echim topayotgan ustuvor ilmiy yo‘nalish sifatida baholanmoqda. Jumladan, xorijlik Karl fon Frish, Eva Kreyen, Fridrix Ruttner, Yurgen Tautz, Tomas D. Sili, Marla Spivak va Piter Noymann[3] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Bu mavzu borasida MDH olimlaridan N. F.Kraxotin, N.A.Belyayeva, V.V.Vorobeva, A.V.Yeliseev, V.V.Jilin, Z.A.Zalilova, R.A.Zaripov, Ye.P.Kolosova, L.N.Korneeva, R.A.Mannapova[4] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Mamlakatimizda ham qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti, jumladan asalarichilik iqtisodiyotini ko‘pgina olimlar tadqiq etgan bo‘lib, ular O.X.Xamidov, D.Sh.Yavmutov, A.J.Abdulloyev, J.Z.Farmonov, Q.G.Berdimuratov, O.A.Maxmadiyarov, A.A.Abduraximov, B.A.Kaxramanov, S.S.Sobirov, M.Shodiyev, M.Komilova, A.Rustamov, X.S.Muxitdinov[5] kabi olimlarning ilmiy

---

[3] Frisch, K. von Decoding the Language of the Bee. Nobel Lecture. 1973., Crane, E. The World History of Beekeeping and Honey Hunting. London: Routledge. 1999., Ruttner, F. Biogeography and Taxonomy of Honeybees. Berlin: Springer-Verlag. 1988., Tautz, J. The Buzz about Bees: Biology of a Superorganism. Berlin: Springer-Verlag. 2008., T. D. Honeybee Democracy. Princeton: Princeton University Press. 2010., Spivak, M., & Reuter, G. S. Resistant honey bees for sustainable apiculture. American Bee Journal, 150(7), 579–582. 2010., Neumann, P., & Carreck, N. L. Honey bee colony losses. Journal of Apicultural Research, 52(1), 1–2. 2016.

[4] Tijani B.A., Ala A.L., Maikasuwa M.A., Ganawa N. “Эconomic Analysis of Beekeeping in Chibok Local Government Area of Borno State, Nigeria” Nigerian Journal of Basic and Applied Science (2011), 19(2): 285-292, Hasan Vural, Süleyman Karaman Socio-эconomic analysis of beekeeping and the эffects of beehive types on honey production//African Journal of Agricultural Research Vol. 5(22), pp. 3003-3008, 18 November, 2010, Oldroyd, B, Lawler, S. H. And Crozier, R. H. 2014, Do feral honeybees Apis mellifera and regent parrots Polytelis anthropeplus compete for nest sites?//Australian Journal of Эcology, Vol. 19: 444-450. Paton D.C. Impact of commercially managed honeybees Apis mellifera on flora and fauna of Ngarkat Conservation Park, HBRDC research report., Seeman, O. 2014, The impact of managed honeybees on native//Australian animals and plants, University of Queensland, unpublished working paper. Н. Ф.Крахотин. Календарь пчеловода. – М.,2009. Воробева В.В. Повышение экономической эффективности пчеловодства в регионе: на материалах Альтайского края тема автореф по ВАК РФ 08.00.05, канд. экон. наук, Залилова З.З. Статистико-экономическое исследование производства продукции пчеловодства // [Электронный ресурс]. — URL: http://www.эconomy-lib.com/statistiko-эkonomicheskoe-issledovanie-proizvodstva-produktsii-pchelovodstva

[5] O.X.Xamidov Improvement and modernization of agricultural irrigation. Uzbekistan case study. *European Journal of Agriculture and Food Sciences*. (2020)., D.Sh.Yavmutov “Yashil iqtisodiyot’ga o‘tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)” mavzusida

ishlarida agrar sohani rivojlantirish, asalarichilik samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida asalarichilikning o‘rni alohida ajralib turadi. Shu sababli ham bu sohani rivojlantirish, samaradorlik ko‘rsatkichini oshirish, asalarichilik klasterlarini joriy etish borasida aniq ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi bu mavzuni tanlash zaruriyatini keltirib chiqardi va uning maqsad hamda vazifalari belgilandi. Qashqadaryo viloyati Respublikamiz janubiy hududida joylashgan bo‘lib, iqlimi qishloq xo‘jaligining qolgan yo‘nalishlarida bir qancha muammolarga uchrayotganligi sababli dissertatsiya ishi obyekti sifatida tanlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq, xususan, “Hududlarda asalarichilikni klasterlarli yondashuv asosida tashkil etish va barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda asalarichilikni klasterlarli yondashuv asosida tashkil etish va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asalarichilikda klasterlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklarining nazariy mohiyatini ochib berish;

asalarichilikni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qo‘llash yo‘nalishlari tahlil etish;

Qashqadaryo viloyati hududlarida asalarichilikning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil etish;

hududlarda asalarichilikning qishloq xo‘jalik ekinlariga ta’sirini iqtisodiy baholash;

hududlarda asalarichilik xo‘jaliklarining mulkchilik shakllarini klasterlar asosida takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

hududlarda asalarichilik klasterlari asosida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish tamoyillari o‘rganish;

Qashqadaryo viloyatida asal ishlab chiqarish hajmi va uni rivojlantirishning 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati asalarichilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar tanlab olindi.

---

doktorlik dissertatsiyasi 2024., A.J.Abdulloyev “Agroklaster faoliyatini boshqarishning ‘Bazaviy’ modeli va uning xususiyatlari”— *Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali*. (2023)., J.Z.Farmonov PhD dissertatsiya avtoreferat “Iqlim o‘zgarishi sharoitida asalarichilikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” 2024., PhD dissertatsiya avtoreferat “Asalarichilik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari” 2024., Maxmadiyarov, O.A. Asalarichilik (uslubiy qo‘llanma). Samarqand: SDVMBU nashriyoti. 2022., Sobirov, S.S., Abduraximov, A.A., & Kaxramanov, B.A. Molecular detection of honey bee viruses in Uzbekistan using RT-PCR. Journal of Apicultural Research, 63(2), 115–124. 2024., Shodiyev, M.B. Conditions for Beekeeping in Uzbekistan. Asian Journal of Agricultural Science, 14(1), 45–52. 2025., Komilova, N.K., & Rustamov, A.J. The Importance of Economic-Geographical Factors in the Development of Beekeeping in the Central Region of Uzbekistan. International Journal of Agriculture and Life Sciences, 9(1), 22–30. 2025., Muxitdinov, X.S. Mintaqada asalarichilikni rivojlantirishda asalarilarni ko‘paytirishning xorij tajribasi va usullari. Innovatsion rivojlanish jurnali, 3(4), 66–72. 2024.

Tadqiqotning predmeti hududlarda asalarichilikni klasterlar asosida tashkil etish jarayonida iqtisodiy, texnologik, ekologik jihatlarini va asalari orqali changlatishning qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligiga ta’siri hamda qo‘shimcha foyda darajasini oshirishning uslubiy tomonlarini urganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy tahlil, abstrakt fikrlash, grafik, so‘rovnoma, monografik kuzatish, ekspert baholash, prognozlash, iqtisodiy-matematik va boshqa uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

hududlarda asalarichilikni rivojlantirishda ishlab chiqarish xo‘jaligi, ilmiy-tadqiqot markazlari, davlat tuzilmalari va tadbirkorlar o‘rtasida kooperatsion integratsiya munosabatlarining innovatsion va raqamli boshqaruviga asoslangan klaster modeli dalillangan;

asalarichilikning hududiy rivojlanish dinamikasini baholash yondoshuvi 0≤0,08≤1 mezonida yuqori va o‘rta darajada diversifikatsiyalanishiga tayangan holda U, F, R, T, A, J va Jf ko‘rsatkichlarining o‘sish hamda pasayish tendensiyalari $Q_{int} = \sqrt{Q'_o \times Q_k}$ integral modeli asosida takomillashtirilgan;

hududiy qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda paxtani changlatishda asalaridan foydalanishga ustuvorlik beruvchi xo‘jalik yuritishning paxtachilik hamda asalarichilik xo‘jaliklarining kooperatsiyasi faoliyati samaradorligining optimal ko‘rininshi Δq = –1,1039 ln(H) + 8,1401 va W = S(–1,1039 ln(H) + 8,1401)(P – C) bo‘lishi asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida asalarichilik xo‘jaliklarini rivojlantirishning 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ichlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududlarda asalarichilikning evolyutsion rivojlanish tarixi nazariy tahlil etilishi asosida klasterlarning turlari, uning xususiyatlari va afzalliklari ta’sirida asalarichilikning hududiy strukturasi ishlab chiqildi;

Xorijiy mamlakatlarning asalarichilik bo‘yicha ilg‘or tajribalarini o‘rganish orqali Qashqadaryo viloyati sharoitida asalarichilik klasterlari tashkil etish va samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbiq etish imkoniyalari asoslandi;

Respublika bo‘yicha asalarichilikning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili asosida Qashqadaryo viloyatining salohiyati aniqlashtirildi;

Qashqadaryo viloyatida jami yetishtirilgan asalni keyingi o‘n yillikdagi hududlar bo‘yicha ulushi tahlili asosida o‘rtacha $(0 \leq 0{,}08)$ o‘sish darajasiga ega bo‘lgan hududlar yuqori $(0{,}08 \leq 1)$ o‘sish darajasiga ega bo‘lgan hududlar aniqlanib, ularni rivojlanitirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

asalarichilikda ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi hududlar bo‘yicha asal yetishtirish ulushining o‘sish tendensiyasi, 2013/2024-yillarda asal yetishtirishning o‘rtacha ulush, hududlar bo‘yicha talabning ulushi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asal miqdorining o‘sishi kabi ko‘rsatkichlarining umumiy integral ko‘rsatkichi ilmiy asoslangan;

hududlarda asalari orqali paxtachilikda changlatish uchun zarur bo‘lgan asalari uyalari bilan ta’minlanganlik koeffitsient minimal $H \leq 0{,}20$ bo‘lganda asalarilar bilan changlatish samaradorligi oshib borishi amaliy isbotlandi.

asal yetishtirish hamda paxta va meva ekinlarini changlatish ko‘rsatkichlari tahlili asosida olingan prognoz natijalari asosida o‘rtacha prognoz natijalari 2024-

yildagiga nisbatan 2026-yilda 1,063 barobarga oshgan, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 1,163 barobarga oshishi kutilmoqda, o‘rtacha o‘sish su’rati 2,46 foizda ekanligini aniqlandi.

Olingan natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qashqadaryo viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi hisobotlaridan, mintaqada faoliyat olib borayotgan asalarichilik obyektlaridan olingan so‘rovnomalardan olingani hamda respublika va xorij iqtisodchi olimlarining sohaga oid tadqiqotlarining ilmiy-uslubiy natijalarga tayanilganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ilmiy jihatdan asalarichilikni klasterlar asosida rivojlantirish uchun yagona hududiy strukturasini tashkil etishning tashkiliy – iqtisodiy, ilmiy texnologik yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlari yaratiladi. Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari hududlarda asalarichilik klasterlarini bosqichma-bosqich shakllantirish uchun master-reja va joylashtirish/rotatsiya tamoyillarini, “asalarichi–fermer/agrar klaster–qayta ishlash–logistika–savdo” halqalari bo‘yicha hamkorlik modeli va shartnoma andozalarini, shuningdek changlatish xizmatlari bozorini talab–taklif, narxlash/bonus/kompensatsiya, sug‘urta va subsidiya mexanizmlari orqali yo‘lga qo‘yish choralarini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatining Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Chorvachilik va veterinariya bo‘limi, asalarichilik uyushmasi tomonidan asalarichilik klasterlarining hududiy taraqqiyotini ta’minlaydigan qarorlar ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Shuningdek, asalarichilik bilan shug‘ullanuvchi xususiy sektorlar faoliyatini tartibga solish, innovatsiyalarni joriy etish, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqishda hamda oliy o‘quv yurtlarida “Innovatsiion iqtisodiyot”, “Sanoat klasterlari” fanlarini o‘qitishda va fan dasturlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Hududlarda asalarichilikni rivojlantirishda ishlab chiqarish xo‘jaligi, ilmiy-tadqiqot markazlari, davlat tuzilmalari va tadbirkorlar o‘rtasida kooperatsion integratsiya munosabatlarining innovatsion va raqamli boshqaruviga asoslangan klaster modeli dalillangan. Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda Asalarichilar uyushmasi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2026-yil 20-apreldagi №02/23-1352 ma’lumotnomasi, Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining 2026-yil 8-iyundagi №37/01-104-son hamda Qashqadaryo viloyati asalarichilar uyushmasining 2026-yil 8 -iyundagi №08-06/3-son ma’lumotnomasi).

Taklif hamda tavsiyalar Qashqadaryo hududlarida klasterlarning markazlashgan holatda birlashishi hamda asalarichilik xo‘jaliklarining rasmiy sektorga o‘tishini ta’minlash bilan birga mahalliy aholining kooperatsiya atrofida

birlashib, ayollar va yoshlar bandligi hamda salohiyatini oshirishga imkon yaratadi;

asalarichilikning hududiy rivojlanish dinamikasini baholash yondoshuvi 0≤0,08≤1 mezonida yuqori va o‘rta darajada diversifikatsiyalanishiga tayangan holda U, F, R, T, A, J va Jf ko‘rsatkichlarining o‘sish hamda pasayish tendensiyalari $Q_{int} = \sqrt{Q'_o \times Q_k}$ integral modeli asosida takomillashtirilgan Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda Asalarichilar uyushmasi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2026-yil 20-apreldagi №02/23-1352 ma’lumotnomasi, Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining 2026-yil 8-iyundagi №37/01-104-son hamda Qashqadaryo viloyati asalarichilar uyushmasining 2026-yil 8 -iyundagi №08-06/3-son ma’lumotnomasi). Hududlarning asalarichilik salohiyatini iqtisodiy ko‘rsatkichlar majmuasini bir integral ko‘rsatkich orqali baholash hamda hududlar kesimida xulosa chiqarib, qaror qabul qilishga imkoniyat yaratadi;

Hududiy qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda paxtani changlatishda asalaridan foydalanishga ustuvorlik beruvchi xo‘jalik yuritishning paxtachilik hamda asalarichilik xo‘jaliklarining kooperatsiyasi faoliyati samaradorligining optimal ko‘rininshi $\Delta q = -1{,}1039 \ln(H) + 8{,}1401$ va $W = S(-1{,}1039 \ln(H) + 8{,}1401)(P - C)$ bo‘lishi asoslangan. Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda Asalarichilar uyushmasi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2026-yil 20-apreldagi №02/23-1352 ma’lumotnomasi, Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining 2026-yil 8-iyundagi №37/01-104-son hamda Qashqadaryo viloyati asalarichilar uyushmasining 2026-yil 8 -iyundagi №08-06/3-son ma’lumotnomasi). Taklif hududlarning qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, ularni changlatish uchun zarur bo‘lgan asalari uyalarini belgilab olish, shuningdek changlatish natijasida yalpi qo‘shimcha foydaning oshish darajasini aniqlash imkoniyatini beradi;

Qashqadaryo viloyatida asalarichilik xo‘jaliklarini rivojlantirishning 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ichlab chiqilgan. Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda Asalarichilar uyushmasi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2026-yil 20-apreldagi №02/23-1352 ma’lumotnomasi, Qashqadaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining 2026-yil 8-iyundagi №37/01-104-son hamda Qashqadaryo viloyati asalarichilar uyushmasining 2026-yil 8 -iyundagi №08-06/3-son ma’lumotnomasi). Prognoz ishlanmalari hududlarda asal yetishtirish hamda paxta va meva ekinlarini changlatish ko‘rsatkichlari tahlili asosida olingan o‘rtacha prognoz natijalari 2024-yildagiga nisbatan 2026-yilda 1,063 barobarga oshgan, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 1,163 barobarga oshishi kutilmoqda, o‘rtacha o‘sish su’rati 2,46 foizni tashkil etishi hamda uning tarkibidagi ta’sir qiluvchi omillar qishloq xo‘jalik

mahsulotlari hajmini oshirishi, asal ishlab chiqarishni ko‘paytirishi nuqtai nazaridan istiqbolda rejalarni amalga oshirish jarayonida qaror qabul qilishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 1 ta xorijiy jurnallarda maqola chop qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 165 betni tashkil etadi. Dissertatsiya ishida 10 ta rasm, 6 ta chizma va 40 ta jadvallar ishlab chiqilgan va tahlil qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi buyicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Hududlarda asalarichilik faoliyatini klasterlash orqali rivojlantirishning nazariy–uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida asalarichilik amaliyotining evolyusion rivojlanish mohiyati va nazariy tahlili hamda O‘zbekiston Respublikasida asalarichilikning kelib chiqishi yoritilgan bo‘lib, uni iqtisodiy jihatdan o‘rgangan olimlar fikr va mulohazalari o‘rganilgan. Shuningdek, asalarichilik klasterlari turlarining ilmiy-nazariy xususiyatlari va afzalliklari, hududiy strukturasi, asalarichilik klasterlari ta’limi markazi ishtirokchilarining hududiy tarkibi ishlab chiqilib, asalarichilikni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarini hududlarda qo‘llash yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilgan.

O‘zbekistonda asalarichilik mahsulotlari qadimdan oziq-ovqat va dori-darmon sifatida ma’lum bo‘lsada, asalarilarni qutilarda boqish XIX-asrning 2-yarmidan boshlangan. Turkistonga dastlabki asalari oilalari 1841-yilda Qozog‘istonning Semipalatinsk viloyatidan keltirilgan. XIX-asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo, jumladan, Turkiston hududida asalarichilik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda Rossiyaning turli mintaqalaridan, xususan o‘rta rus asalarisi, Kavkaz kulrang tog‘ asalarisi hamda ukrain dasht asalarisi keltirilib, mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirilgan.


O‘zbekistonda asalarichilikning rivojlanish bosqichlari va har bir davrda ilmiy-nazariy asoslarning shakllanishi ko‘rsatilgan. Bu jarayon asalarichilikning mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i sifatida rivojlanishiga xizmat qilgan.

1- jadval.

O‘zbekiston Respublikasida asalarichilikning kelib chiqishi va evolyusion rivojlanishining ilmiy -nazariy tavsifi [6]

№	Davr	Asalarichilikning rivojlanishi	Ilmiy-nazariy tavsifi
1.	Qadimgi davr	Odamlar yovvoyi asalarilardan asal yig‘ishgan; bu usul terimchilik va ovchilikning bir turi hisoblangan	Asalarilarning tabiiy yashash joylari va ularning hayot tarzi o‘rganilgan
2.	XIX-asr oxiri - XX asr boshi	Asalarichilik qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sifatida rivojlana boshladi; rus askarlari va amaldorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi	Asalarichilikning ilmiy asoslari shakllana boshladi; asalarilar biologiyasi va parvarishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi
3.	XX-asrning 20-yillari	Maxsus asalarichilik xo‘jaliklari tashkil etildi; asalarichilik serdaromad tarmoqqa aylandi	Asalarichilikda ilmiy yondashuvlar rivojlandi; asalarilarni parvarish qilish va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi
4.	XX-asrning 70-80 yillari	Respublikada 100 dan ortiq asalarichilik xo‘jaliklari faoliyat yuritdi; Karpat va kulrang Kavkaz asalarilari olib kelindi	Asalarilar zotlarini yaxshilash va yangi zotlarni moslashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi
5.	XXI-asr	Asalarichilikni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilindi; asalarichilik mahsulot-lari ishlab chiqarish hajmi oshdi	Asalarichilikda innovatsion texnologiyalar joriy etildi; asalarilar kasalliklari va ularni davolash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi

Asalarichilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u faqat asal mahsulotlarini etkazib beruvchi soha emas, balki agrar tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Asalarilar o‘simliklarni changlatish orqali hosildorlikni oshirish, urug‘larning sifatini yaxshilash va ekotizim barqarorligini ta’minlashda muhim ekologik rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, asalarichilik nafaqat iqtisodiy, balki ekologik ahamiyatga ega barqaror tarmoq sifatida e’tirof etiladi.




1-rasm. Asalarichilikning hududiy rivojlanish tamoyillari[7].

[6] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.
[7] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Asalarichilikni rivojlantirishda to‘rt muhim tamoyilni aks ettiradi: iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajriba asosida davlatning qo‘llab-quvvatlashi. Ushbu tamoyillar asosida asalarichilik sohasi nafaqat qishloq xo‘jaligiga, balki umumiy iqtisodiyot va ekologik barqarorlikka ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz natijasida bugungi kundagi sohada mavjud muammolar yechimiga ijobiy yondashuvchi sifatida hududda “Asalarichilik klasteri” tuzulmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ushbu nuqtai nazardan biz quyidagi asalarichilik klasterining tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqdik (1-rasm). Asalarichilik klasterlari o‘zaro bog‘langan tizim sifatida faoliyat yuritishi tarmoqlar o‘rtasidagi hamkorlik va innovatsiyalarni tezroq joriy etish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish va ilg‘or tajribalarni almashish imkonini yaratadi. Klasterning tarmoq modeli asosida asalarichilik xo‘jaliklari bir-biri bilan kooperatsiyada ishlaydi, bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va hajmini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ichki bozor talabiga tezkor javob berish imkonini beradi.



2 - rasm. Asalarichilik klasterlarining hududiy strukturasi[8]

Klasterning rivojlanishida ilmiy markazlar, innovatsiyalar va texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-tadqiqot institutlari yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, ilg‘or usullarni amaliyotga tadbiq etish va asalarilarning biologik xavfsizligini ta’minlash borasida faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan asal yig‘im tizimlari va monitoring uskunalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash hamda sifat nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Klasterning yana bir muhim elementi – tadbirkorlar va marketing tizimidir. Tadbirkorlar klasterning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ular innovatsiyalarni tatbiq etish, biznes strategiyalarni ishlab chiqish va investitsiyalarni jalb etish orqali sohaning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, marketing va savdo siyosati bozor talabini o‘rganish, mahsulotni qadoqlash, brend

8 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

yaratish va eksport jarayonlarini samarali tashkil etish orqali klasterning raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, eksport va davlat qo‘llab-quvvatlovi asalarichilik klasterlarining xalqaro miqyosdagi faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Eksport subyektlari mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish, global talabni o‘rganish va xalqaro sertifikatlash jarayonlarida ishtirok etadi. Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy va institutsional yordam – subsidiya, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va grantlar shaklida ifodalangan bo‘lib, bu mexanizmlar klasterlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi hamda innovatsion rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi.

Bu asalarichilik klasterining tashkiliy tuzilmasi asalarichilik sohasining samarali rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan barcha asosiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Asalarichilik klasterlarining samarali faoliyat yuritishi ko‘plab iqtisodiy va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillar jumlasiga ishlab chiqarish fondlari, ixtisoslashgan ishchi kuchi, ilmiy tadqiqotlar, qulay geografik joylashuv hamda rivojlangan infratuzilma kiradi. Mazkur omillar o‘zaro uyg‘unlikda klaster tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Birinchidan, ishlab chiqarish omillari va infratuzilma asalarichilik tarmog‘ining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ikkinchidan, ixtisoslashgan ishchi kuchi asalarichilik klasterlarining samaradorligida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Uchinchidan, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va mahsulot sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. To‘rtinchidan, geografik joylashuv va tabiiy resurslar ham asalarichilik klasterlarining muvaffaqiyatida muhim omil hisoblanadi. Beshinchidan, klaster ichidagi hamkorlik va integratsiya tarmoq barqarorligining asosiy garovidir.

Mazkur jihatlar asosida hududlarda asalarichilik klasterlarini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ichki bozorni sifatli asal mahsulotlari bilan ta’minlash va eksport hajmini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Qashqadaryo viloyati hududida asalarichilikning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka ta’siri va hozirgi holati tahlili”** nomli ikkinchi bobida Qashqadaryo viloyatida hududlarida asalarichilikning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarishlari tahlili keltirilgan bo‘lib, ular asosida 2012-2024 yillardagi iqtisodiy o‘sishning hududlararo tahlili asosida hududning umumiy integral o‘sish qiymatini hisoblash usuli ishlab chiqilgan. Shuningdek, hududlarda asalarichilikning qishloq xo‘jaligi ekinlariga ta’sirini iqtisodiy baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar tahlil etilish asosida qashqadaryo viloyatida paxtachilik misolida asalasrichilikning qishloq xo‘jaligi ekinlarini changlatish normativi va hosildorlikning o‘sish darajasi aniqlashtirilgan hamda asalarichilik xo‘jaliklarining mulkchilik shakllarini klasterlar asosida takomillashtirish va hududlarda asalari zotlarinig samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha monografik tahlil o‘tkazilgan.

Hududlarda asalarichilik sohasini rivojlantirish nafaqat asal ishlab chiqarishni, balki qishloq xo‘jaligi ekinlarini changlatish orqali ularning hosildorligini oshirishga ham qaratiladi. Statistik hisobotlarda asalarichilik chorvachilik tarmog‘iga kiritilsa-da, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mahsulotni yig‘ishtirib oladi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyun 239-son “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorida “O‘zbekiston

paxta to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi, “O‘zbekiston asalarichilar uyushmasi” va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida shartnoma asosida qishloq xo‘jaligida paxtachilik va meva - sabzavotchilik yo‘nalishlarida ularni changlantirish uchun zarur bo‘lgan uyalar sonini 2024-yilda Respublika bo‘yicha 1702,8 mingtaga, Qashqadaryo viloyatida 158,3 mingtaga yetkazish reja qilingan. Zero, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bevosita xarajatlar minimallashtirish evaziga asalarichilikni rivojlantirish bilan bog‘liq.

Qashqadaryo viloyati asalarichilik sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili hududlari bo‘yicha dinamik o‘zgarishlar turlicha natijalarni ko‘rsatadi. Jumladan, asal mahsulotlari yetishtirish miqdori deyarli barcha hududlarda oshib borgan. Ammo asal ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha o‘sish tezligi turlicha. Shuning uchun asalarichilikni rivojlantirish islohotlarini olib borishda ko‘rsatkichlar bo‘yicha, hududlar bo‘yicha o‘sish darajalarini taqqoslash ortda qolayotgan hududlar va ko‘rsatkichlar bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun tahlillarni aniqlashtirish lozim bo‘ladi.

Fikrimizcha, bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

asal ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi

$\left(\boldsymbol{U} = \frac{\text{Taqqoslanayotgan yildagi ko‘rsatkich}}{\text{Joriy yildagi ko‘rsatkich}} * 100\right)$ bo‘yicha tumanlarni taqqoslash;

hududlar bo‘yicha asal yetishtirish ulushining o‘sish tendensiyasi

$(F = \frac{Tumanlarda\ yetishtirilgan\ asal\ miqdori}{Hududda\ yetishtirilgan\ jami\ \ asal}\ 100)$ bo‘yicha taqqoslash;

2013-2024 yillarda asal yetishtirishning o‘rtacha ulush

$(R = \frac{tumanlar\ bo‘yicha\ asal\ yetishtirish\ ulushi\ yig‘indisi}{Taqqoslanayotgan\ yillar\ soni}\ 100)$;

hududlar bo‘yicha asalga bo‘lgan talabning ulushi

$(T = \frac{Alohida\ tuman\ bo‘yicha\ aholi\ soni \times asal\ normasi}{Hudud\ bo‘yicha\ asalga\ bo‘lgan\ jami\ talab})$;

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asal miqdorining o‘sishi

$(A = \frac{Jami\ yetishtirilgan\ asal\ miqdori}{Aholi\ soni})$,

O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha jami (J)

$J_o =$ tuman bo‘yicha tanlangan o‘suvchi ko‘rsatkichlar soni,

$J_k = t$uman bo‘yicha tanlangan kamayuvchi ko‘rsatkichlar soni;

O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha tumanlarning ulushi, (J_f):

$Jf_o = tuman\ bo‘yicha\ tanlangan\ o‘suvchi\ ko‘rsatkichlar\ ulushi, \%,$

$Jf_k = tuman\ bo‘yicha\ tanlangan\ kamayuvchi\ ko‘rsatkichlar\ ulushi, \%,)$

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati hududlarida asal yetishtirishnining integral ko‘rsatkichlari[9]

Hududlar	Asal ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi bo‘yicha (***U***)		Hududlar bo‘yicha asal yetishtirish ulushining o‘sish tendensiyasi bo‘yicha (***F***)		2013-2024 yillarda asal yetishtirishning o‘rtacha ulush (***R***)		Hududlar bo‘yicha asalga bo‘lgan talabning ulushi (***T***)		Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asal miqdori o‘sishi (***A***)		O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha jami (***J***)		O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha jami,(J_f)%		O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha tumanlarning integral ko‘rsatkichi $I_t I_t = \sqrt{Jf_o \times Jf_k}$
	O‘ suvchi $U_{o'}$	Kamayuvchi U_k	O‘ suvchi $F_{o'}$	Kamayuvchi F_k	O‘ suvchi $R_{o'}$	Kamayuvchi R_k	O‘ suvchiT_o	Kamayuvchi T_k	O‘ suvchi $A_{o'}$	Kamayuvchi A_k	O‘ suvchi $J_{o'}$	Kamayuvchi J_k	O‘ suvchi $Jf_{o'}$	Kamayuvch Jf_ki	
G‘uzor	1			1		1		1		1	1	4	20	80	40,0
Dehqonobod		1		1		1		1		1	0	5	0	100	0,0
Qamashi		1	1			1	1			1	2	3	40	60	49,0
Qarshi		1		1	1			1		1	1	4	20	80	40,0
Koson		1	1		1		1			1	3	2	60	40	49,0
Kitob	1		1	1			1		1		4	1	80	20	40,0
Mirishkor		1	1			1		1		1	1	4	20	80	40,0
Muborak	1		1			1		1		1	2	3	40	60	49,0
Nishon		1	1		1			1	1		3	2	60	40	49,0
Kasbi	1		1			1		1	1		3	2	60	40	49,0
Chiroqchi	1		1			1	1		1		4	1	80	20	40,0
Shahrisabz	1			1	1		1			1	3	2	60	40	49,0
Yakkabog‘		1	1			1		1	1		2	3	40	60	49,0
Qarshi shahri	1			1		1		1		1	1	4	20	80	40,0
Shahrisabz		1			1	1		1		1	1	4	20	80	40,0
Ko‘kdala		1		1		1		1	1		1	4	20	80	40,0
Hududlar bo‘yicha jami,birlik	7	9	9	7	5	11	5	11	6	10	32	48	6	10	
Hududlar bo‘yicha jami,% 1. $Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'}$, $\frac{o'}{h} * 100$ 2. $Q\ (U,F,R,T,A,J,Jf)_k$ $\frac{k}{h} * 100$	44	56	56	44	31	69	31	69	38	62	40	60	40	60	49
Ko‘rsatkichlar bo‘yicha integral koeffitsient $Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{in} = \sqrt{Q_{o'}} * Q_k$	49,6		49,6		46,4		46,4		48,4		49,0		49,0		
Viloyat bo‘yicha o‘rtacha integral ko‘rsatkich $Vint = \sqrt[7]{Q(U,F,R,T,A,J,J}$	48,3														

[9] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha asal ishlab chiqarishning ko‘rsatkichlarning jamlanma o‘sish ($Jf_{o'}$) va kamayish (Jf_k) tendensiyasi bo‘yicha tumanlarning ulushi orqali alohida tuman bo‘yicha integral ko‘rsatkichni hisoblash mumkin. Bu tumanlarning asal yetishtirish bo‘yicha o‘rtacha o‘sish darajasini ko‘rsatadi. Ushbu integral ko‘rsatkichni (I_t) quyidagicha hisoblash mumkin:

$$I_t = \sqrt{Jf_{o'} \times Jf_k} \qquad \textbf{(1)}$$

1-jadvalda tumanlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan asalning ko‘rsatkichlar bo‘yicha umumiy o‘rtacha o‘sishi hisoblab chiqilgan. Jumladan, G‘uzor tumanida $I_t = \sqrt{20 \times 80} = 40$ ni tashkil qilgan. Bu G‘uzor tumanida asal yetishtirish ko‘rsatkichlarining o‘rtacha o‘sishi 40 foizni tashkil etishini bildiradi. Umumiy o‘sish tezligi 2013-2024 yillarda 40 foizni kamayish tezligi 60 foiz bo‘lib, tumanlar bo‘yicha o‘ratacha o‘sish $I_t = \sqrt{40 \times 60} = 49$ ni tashkil qilgan. Ammo ushbu ko‘rsatkich viloyat tumanlari bo‘yicha turlicha. Umumiy holda tumanlar bo‘yicha o‘rtacha o‘sish 40-49 foiz oralig‘ida o‘sish tezligiga ega.

Qashqadaryo viloyatida asal yetishtirish va uni aholiga yetkazib berishni ifodalovchi 2013-2024 yillardagi ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi **(*U*)** (dissertatsiyaning 2.4-jadvali), hududlar bo‘yicha asal yetishtirish ulushining o‘sish tendensiyasi **(*F*)** (dissertatsiyaning 2.5-jadvali) 2013-2024 yillarda asal yetishtirishning o‘rtacha ulushi **(*R*)** (dissertatsiyaning 2.4-rasmi), hududlar bo‘yicha asalga bo‘lgan talabning ulushi (***T***) (dissertatsiyaning 2.6 - jadvali), aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asal miqdori o‘sishi **(*A*)** (dissertatsiyaning 2.7-jadvali), shuningdek, o‘sish va kamayish tendansiyasi tumanlar soni **(*J*)**, O‘sish va kamayish tendansiyasi bo‘yicha ulushi **(J_f)%** (dissertatsiyaning 2.8-jadvali) kabi ko‘rsatkichlarning tahlili asosida ko‘rsatkichlarning o‘sish va kamayish tendensiyasi bo‘yicha tumanlar sonining ($Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'}$) ulushini quyidagi formulalar asosida aniqlab olishimiz mumkin:

1. O‘sish tendensiyasi bo‘yicha tumanlar sonining $Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'}$) ulushi:

$$Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'} = \frac{o'}{h} * 100 \qquad \textbf{(2)}$$

$o' -$ berilgan ko‘rsatkich bo‘yicha o‘sish tendensiyasiga ega tumanlar soni, birlik.

h- aniqlanayotgan davrda hududdagi jami tumanlar soni, birlik.

Masalan: Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi bo‘yicha $Q(U)_{o'} = \frac{7}{16} * 100 = 44\%$

2. O‘sish tendensiyasi bo‘yicha tumanlar sonining $Q\ (U,F,R,T,A,J,Jf)_k$ ulushi:

$$Q\ (U,F,R,T,A,J,Jf)_k = \frac{k}{h} * 100 \qquad \textbf{(3)}$$

$k -$ berilgan ko‘rsatkich bo‘yicha kamayish tendensiyasiga ega tumanlar soni, birlik.

Masalan: Ishlab chiqarish hajmining kamayish darajasi bo‘yicha $Q(U)_{o'} = \frac{9}{16} * 100 = 56\%$

$Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'} + Q\ (U,F,R,T,A,J,Jf)_k = 100\%$ ni tashkil qilish lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, qaysi tendensiya oshib borsa ikkinchisi kamayib boradi. Bu ikkala tendensiyaning o‘rtacha integral koeffitsiyenti aniqlansa tumanlarning hududda tanlangan ko‘rsatkich bo‘yicha umumiy o‘rtacha o‘sish darajasini belgilab olsa bo‘ladi.

$$Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{int} = \sqrt{Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{o'} * Q\ (U,F,R,T,A,J,Jf)_k} \qquad \textbf{(4)}$$

Ushbu formula orqali hududning tanlab olingan ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy o‘sish darajasi aniqlanib, yuqori darajada o‘sayotgan hududlar bilan past darajada o‘sayotgan hududlar bir xil ko‘rsatkichga keltiiladi. Masalan: Qashqadaryo viloyatida asal ishlab chiqarish hajmining o‘sish darajasi bo‘yicha $Q(U)_{int} = \sqrt{44 * 56} = 49{,}6$ ni tashkil qilgan. Bundan faqatgina bir ko‘rsatkichni aniqlash mumkin. 2.8-jadvalda keltirilgan yettita ko‘rsatkichlarning ma’lum bir tanlangan hudud bo‘yicha umumiy o‘rtacha o‘sishini quyidagi hudud bo‘yicha o‘rtacha integral ko‘rsatkich ($Vint$) orqali ifodalash mumkin:

$$Vint = \sqrt[7]{Q(U,F,R,T,A,J,Jf)_{int}} \qquad \textbf{(5)}$$

Misol uchun dissertatsiyaning 2.8-jadvalda keltirilgan yettita ko‘rsatkichning o‘rtacha o‘sish integralini hududning yaxlit umumiy o‘sish darajasiga keltirish mumkin. Uni quyidagicha aniqlaymiz:

$$Vint = \sqrt[7]{49{,}6 * 49{,}6 * 46{,}4 * 46{,}4 * 48{,}4 * 49{,}0 * 49{,}0} = 48{,}3$$

Ushbu aniqlangan ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyati asalarichilik faoliyatida ijtimoiy – iqtisodiy ko‘rsatkichlarning umumiy o‘sish darajasi 48,3 foizni tashkil qilishini angalatadi.

Mahalliy asalarichilikda changlatish xizmatining barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik korxonalarining ishlab chiqarishdagi marjinal daromadini baholash uchun qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish kerak. Asalarichilik uchun tayyorlangan maydonlarda mavjud asalari uyalari va uning ma’lum vaqt davomida marjinal o‘zgarishi aprior taxmin qilish uchun etarli emas. Hududlarda asalarichilikning qishloq xo‘jaligi daromadiga marjinal samarasini aniqlash uchun yalpi hosilga ta’sir qiluvchi hosildorlikning o‘zgashini tahlil qilish lozim. Shundan so‘ng yuqoridagi baholash usullaridan foydalanish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida paxta xom ashyosining yalpi hosili 446630,3 tonnani tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 18,1 foizga oshgan. Yer maydoni esa keyingi besh yilda 21,3 foizga oshgan. Paxta hosildorligini asalarilar orqali changlatilsa yalpi hosil 35 – 40 foizga oshirish mumkinligi olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Shunga asosan 2024-yilda 446630,3 tonna paxta xom ashyosi yetishtirilgan bo‘lsa, ular asalarilar bilan changlatilsa 602950,8 tonnaga yetishi mumkin. Tabiiy holda 2024-yilda 1 gektardan paxtachilikda 6240,2 ming so‘mlik foyda olingan bo‘lsa, changlatish xarajatlarisiz 14976,2 ming so‘m foyda olish mumkin. Ushbu tahlillarni

hisobot uchun aytish mumkin. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida fermerlar va klasterlar uchun aniq optimal variantni ko‘rsatadigan hisob kerak bo‘ladi. Dissertatsiyadagi 2.8-formula asosida tahlil etilsa, bu statik ko‘rsatkichlar natijasini beradi.

3-jadval.

Paxtachilikda changlatish orqali hududiy foydaning oshishi [10]

Yillar	Changlatishga ajratilgan maydon **S (ga)**	Changlatish natijasida yalpi hosilning o‘sishi **Δq (t/ga)**	Paxta **bahosi P (ming so‘m/t)**	Tannarx **C (ming so‘m/t)**	**(P–C)**	Uyalar soni **H (uya)**	Paxtachilikda qo‘shimcha foyda $W = S * \Delta q\ (P - C)$ **(mlrd so‘m)**
2020	138700	3,5	8800	6688	2112	47653,8	1085,3
2021	136000	3,9	9800	6860	2940	50111,5	1558,2
2022	144000	4,0	10025	6917	3107	51934,6	1789,7
2023	166200	3,6	8300	7055	1245	56369,2	745,1
2024	168200	3,6	9400	7050	2350	59076,9	1424,6
2024 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarish,%	121,3	102,9	106,8	105,4	111,3	124,0	131,3

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, changlatish orqali paxtachilikdan olingan hududiy foyda 2024-yilda 1424,6 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 31,3 foizga oshgan. 2022-yilda maksimal foydaga erishilgan.

4-jadval

Asalari oilalarining paxtani changlatish uchun zarur bo‘lgan optimal soni[11]

Yillar	**H**	**ln(H)**	W^h **(Δq)**
2020	47653.8	3.86	3.7
2021	50111.5	3.91	3.9
2022	51934.6	3.95	4.0
2023	56369.2	4.03	3.6
2024	59076.9	4.08	3.6

2023-yilda paxta bahosining pasayganligi sababli foyda kamaygan. 2024-yildan boshlab yana ko‘tarila boshlagan. Bu tahlillardan changlatish natijasida qo‘shimcha foydaning o‘sish tendensiyasini aniqlash mumkin. Ammo bu yerda changlatish mumkin bo‘lgan asalari uyalarining optimal sonini aniqlab bo‘lmaydi. Buning uchun qo‘shimcha foydani asalari uyalariga bog‘liq o‘sishini ifodalovchi formulani ishlab chiqishimiz lozim.

[10] Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi va asalarichilar uyushmasi ma’lumotlari asaosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

[11] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

$$W^h = a\ln(H) + b \qquad \textbf{(6)}$$

Bu yerda W^h 6-formuladagi Δq ning asalari oilalalariga bog‘liq optimal variantini ifodalaydi. Uni yillar davomidagi qiymatining o‘zgarishi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Changlatish natijasida paxtachilikda qo‘shilgan qiymatga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar[12]

Yillar	S (ga)	P (ming so‘m)	C (ming so‘m)	Talab Ht, dona	Mavjud uyalar soni Ha, dona	H = Ha/Ht
2020	138700	8800	6688	416100	47653,85	0,115
2021	136000	9800	6860	408000	50111,54	0, 123
2022	144000	10025,2	6917,4	432000	51934,62	0,120
2023	166200	8300	7055	498600	56369,2	0,113
2024	168200	9400	7050	504600	59076,9	0,117
2024-yilda 2020-yilga nisbatan o‘zgarish,%	121,3	106,8	105,4	121,3	124,0	102,2

Bu yerda $a\ln(H)$ Δq ning qanchaga o‘zgarishini anglatadi. Uni a regressiyaning ko‘ndalang koeffisiyenti hisoblanib, uni quyidagicha hisoblaymiz. $x = \ln(H/1000)$, y= Δq chiziqli regressiya qoidasiga ko‘ra, $a = \frac{\sum(x_i-\overline{x})\,(y_i-\overline{y})}{\sum(x_i-\overline{x})^2}$, b=$y_i - a\overline{x}$. Shu formula bo‘yicha 2.17-jadvaldagi 5 yillik ko‘rsatkichlar asosida hisoblasak, 1-formuladagi $a = -1{,}1039$, $b = 8{,}1401$ ga teng bo‘ladi. Unda Δq ni quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\Delta q = -1{,}1039\ln(H) + 8{,}1401 \qquad \textbf{(7)}$$

7– ifoda shuni anglatadiki, asalari uyalari soni 1000 birlikka nisbatan logorifmik o‘sganda har gektardan hosilning texnologik o‘zgarishlarni hisobga olinmaganda foyda maksimal nuqtaga erishgandan so‘ng Δq ning o‘sishi -1.1 koeffitsiyent bilan sekinlashib boradi. 7-formulani dissertatsiyani 2.8-formulaga olib borib qo‘yilsa quyidagi formulani hosil qilamiz.

$$W = S * (-1{,}1039\ln(H) + 8{,}1401\,)(P - C) \qquad \textbf{(8)}$$

